# SCIENCE PROBLEMS.UZ

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

№ S/5 (3) - 2023

# ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

# АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

# ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ
ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
ELECTRONIC JOURNAL

**ISSN:** 2181-1342 (Online)

**Сайт:** https://scienceproblems.uz

**DOI:** 10.47390/SPI1342V3SI5Y2023

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

***№ S/5 (3)-2023***

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**ТОШКЕНТ-2023**

**БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

**ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

*07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

*08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

*09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

*10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич –филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

*12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа октори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби

*13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

*19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

*22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

*23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

**ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

**Crossref DOI:**

Таҳририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

**Google Scholar**

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

**Таҳририят манзили:**
Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал:
https://t.me/scienceproblems_uz

**МУНДАРИЖА**

**07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ**

*Кайпова Малика Дауытбай қизи*
ҚОРАҚАЛПОҒИСТОНДАГИ ТАРИХИЙ МАДАНИЙ ОБЪЕКТЛАР ВА УЛАРНИНГ ҲУДУДДА ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ ........ 9-13

*Фарманова Гульнара Комилевна*
АРХЕОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ Г.А.ПУГАЧЕНКОВОЙ НА ТЕРРИТОРИИ САМАРКАНДСКОГО СОГДА ........ 14-19

*Aminov Xurmatbek Baxram o‘g‘li*
HUNARMANDCHILIK RIVOJI UCHUN YANGI IMKONIYATLAR ........ 20-25

*Мустафоев Жонибек Аралбоевич*
“ПАХТА ИШИ”НИНГ ИЖТИМОИЙ-ИҚТИСОДИЙ ҲАЁТГА ТАЪСИРИ ВА УНИНГ ФОЖИАЛИ ОҚИБАТЛАРИ (НАВОИЙ ВИЛОЯТИ МИСОЛИДА) ........ 26-31

*Yunusxo‘jayev Habibulla Zafar o‘g‘li*
O‘ZBEKISTON TARIXIY TARAQQIYOTNING ZAMONAVIY BOSQICHIDA IJTIMOIY DAVLATNI SHAKLLANTIRISHNING KONSTITUTSIYAVIY ISTIQBOLLARI ........ 32-36

*Маҳмудон Эркин Асқаралиевич*
АРАБ ХАЛИФАЛИГИ ИСТИЛОСИ ДАВРИДА ФАРҒОНАДАГИ СИЁСИЙ ЖАРАЁНЛАР ....37-45

*Назаров Комил Шамсуддинович*
ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИ ТИЗИМИДА КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ МАСАЛАЛАРИ ........ 46-51

*Matajonov Rahimjon Akramovich*
O‘ZBEKISTONDA MUSTAQILLIK YILLARIDA TARIXCHI KADRLAR TAYYORLASH SOHASI HUQUQIY ASOSLARINING YARATILISHI ........ 52-58

**08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ**

*Остонокулов Азамат Абдукаримович, Султонов Омон Жума ўғли*
ДАВЛАТ ОТМЛАРИДА БЮДЖЕТДАН ТАШҚАРИ МАБЛАҒЛАР ҲАРАКАТИ ТЎҒРИСИДАГИ ҲИСОБОТЛАРНИНГ АХБОРОТ ИМКОНИЯТЛАРИНИ ОШИРИШ ЙЎЛЛАРИ ........ 59-69

*Narmatatov Ixtiyor Baxtiyorovich*
DEVELOPMENT ADVANTAGES OF CASHLESS PAYMENTS IN THE PAYMENT SYSTEM OF UZBEKISTAN ........ 70-75

*Хамраев Джамшид Панжиевич*
ТЕМИР ЙЎЛ ТРАНСПОРТИДА МАҲАЛЛИЙЛАШТИРИШНИ МОЛИЯЛАШТИРИШНИНГ ИҚТИСОДИЙ МОҲИЯТИ, РИВОЖЛАНИШ БОСҚИЧЛАРИ ВА ЗАРУРЛИГИ ........ 76-81

*Кулибоев Азамат Шоназарович*
ДАВЛАТ ТИББИЁТ ТАШКИЛОТЛАРИДА ҲИСОБ СИЁСАТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ УСЛУБИЁТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ........ 82-91

*Axmedova Nazokat Zikirillo qizi*
KORXONA MARKETING STRATEGIYASIDA RAQAMLI STRATEGIYADAN FOYDALANISH USULLARI VA AFZALLIKLARI ........ 92-97

*Саатмуротов Шоҳрух*
МИНТАҚАДА САНОАТ ИШЛАБ ЧИҚАРИШНИНГ БАҲОЛАШ ОМИЛЛАРИ ..................... 98-103

*Шакирова Фароғат Болтаевна*
АҚШ ИҚТИСОДИЁТИНИНГ ИННОВАЦИОН ТИЗИМИ ОМИЛЛАРИ, ТАРКИБИ ВА РИВОЖЛАНИШ НАЗАРИЯСИ ..................... 104-113

*Кадиров Лутфулло Халимович*
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ МОЛИЯВИЙ БОШҚАРУВ ТИЗИМИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ МУАММОЛАРИ ..................... 114-121

*Ibragimova Zarema Zokirovna*
DUNYONING IQTISODIY RIVOJLANGAN MAMLAKATLARINING BOSHQARUV TAHLILINI TASHKIL ETISH VA ULARNI ICHKI IQTISODIYOTGA TATBIQ ETISH TAJRIBASI ..................... 122-129

*Қодиров Азизжон Анварович*
«COVID-19» ИНҚИРОЗИНИНГ ЖАҲОН ЭКОТУРИЗМ ИНДУСТРИЯСИ РИВОЖЛАНИШИГА ТАЪСИРИ ..................... 130-137

***09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ***

*Sharipov Dilshod Baxshilloyevich*
JON LOKKNING TABIIY HOLAT VA TINChLIKKA OID QARASHLARI ..................... 138-145

*Raxmatova Xolidaxon Xolikovna*
XOJA AHROR VALIYNING TINCHLIK, OSOYISHTALIK VA HAMJIHATLIKKA DOIR G‘OYALARI – BARQAROR TARAQQIYOT OMILI SIFATIDA ..................... 146-151

*Орзиев Иқболжон*
АХБОРОТЛАШГАН ЖАМИЯТДА СЕКУЛЯРИЗМ ОМИЛИНИНГ ИЖТИМОИЙ АҲАМИЯТИ ..................... 152-157

*Turabova Sevara Kattaqulovna*
ILMIY MUAMMOLARNI HAL ETISHDA BAHS-MUNOZARALARNING TUTGAN O‘RNI...... 158-165

***10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ***

*Israil Mukaddas Irgashevna*
BOSMA MEDIA TILINING SOTSIOLINGVISTIK ASPEKTDA O‘RGANISH USULLARI .......... 166-172

*Nishonova Xurshida Yusufjanovna*
A’ZAM O‘KTAM SHE’RIYATIDA MILLIY RUHNING IFODALANISHIDA E’TIQODIY QARASHLAR ..................... 173-178

*Маматкулова Камола Шавкат кизи*
ИСТОРИЯ ВОЗНИКНОВЕНИЯ ПОНЯТИЯ ПРЕЦЕДЕНТНОСТИ В ЛИНГВИСТИКЕ И ЕГО РОЛЬ В ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИИ ..................... 179-184

*Hamroyeva Dilfuza Jamolovna*
O‘ZBEK XALQ QO‘SHIQLARIDA YUZ SOMATIZMINING BADIIY TALQINI ..................... 185-189

*Mahmudova Xushnoza Ravshanbekovna*
OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA MOLIYAVIY SAVODXONLIKNI OSHIRISH

MASALALARI ........ 190-195

*Ismonova Yorqinoy Abdumutalib qizi*
ROMANDA ROVIY BOLA OBRAZI ........ 196-200

*Mirzoyev Masudjon Kimsanovich, Niholchonova Navbahor*
FARZONA XOʻJANDIY SHE’RLARIDA MIFOLOGIK PERSONAJLAR BADIIY IFODASINING XUSUSIYATLARI ........ 201-206

*Kholiyorov Bunyod*
THE CONDITION OF DEVELOPMENT OF LEXICAL COMPETENCE USING AUTHENTIC MATERIALS IN TEACHING ENGLISH IN NON-PHILOLOGICAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS ........ 207-213

*Hazratqulov Mutallib Rashidovich, Gulxanova Fotima, Qarshiboyeva Muborak*
NUTQNI IDROK ETISH QONUNIYATLARI ........ 214-219

## 12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР

*Файзиев Шухрат Хасанович*
ПОНЯТИЕ И ОСОБЕННОСТИ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В КОНТЕКСТЕ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ........ 220-225

*Nishonov Abdulloh Ubaydulloh oʻgʻli*
ATOM ENERGIYASINING XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI ........ 226-233

*Safoeva Sadoqat Musoeva*
IJTIMOIY TARMOQLARDA FUQAROLIK-HUQUQIY MUNOSABATLARNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH ISTIQBOLLARI ........ 234-246

*Бокиев Жаҳонгир Нурматжон ўғли*
АЛОҲИДА ТАЪЛИМ ЭҲТИЁЖЛАРИ БЎЛГАН ШАХСЛАРНИНГ ОЛИЙ ТАЪЛИМ ОЛИШ ҲУҚУҚИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ТАШКИЛИЙ-ҲУҚУҚИЙ МАСАЛАЛАРИ ........ 247-253

*Турсунова Маликахон Улуғбековна*
ЗАМОНАВИЙ ДАВЛАТДА ДИПЛОМАТИК ФАОЛИЯТ ШАКЛЛАРИ: ИСЛОХОТЛАР ВА ҚОНУНЧИЛИК ТАРТИБОТИГА БЎЛГАН ЭҲТИЁЖ ........ 254-258

## 13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

*Atamatov Abduxalil Salomovich*
OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA MUSTAQIL SOATLARNI OʻQITILISHINING KOMPETENSIYAVIY OʻZIGA XOS XUSUSIYATLARI ........ 259-265

*Omarova Gavhar Sadikovna*
HUQUQ FANINI O'QITISHDA TA'LIMNI TABAQALASHTIRISHNING PEDOGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI: DIDAKTIK O'YINLAR MISOLIDA ........ 266-271

*Baratov Joʻraqoʻzi Shukurjon oʻgʻli*
BOʻLAJAK PEDAGOGLARNING KASBIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA NOSTANDART TOPSHIRIQLARNING ROLI VA AHAMIYATI ........ 272-277

*Kuchkarova Arofathon*
THE IMPORTANCE OF GEOGEBRA IN ENHANCING STUDENTS' LEARNING OF MATHEMATICS AT SCHOOLS ........ 278-283

*Tojiyeva Xolida Baxtiyorovna*
UMUMTA'LIM MAKTABLARI ADABIYOT DARSLARIDA ASAR BADIIYATINI O'QITISH TARIXI ........ 284-288

*Masharipov Ravqat Madraximovich*
KURASH BILAN SHUG'ULLANUVCHI TALABA SPORTCHILARDA TAYYORGARLIK BOSQICHLARINI KUN VA HAFTALIK MIKROTSIKLLARDA MASHG'ULOT YUKLAMALARINI OPTIMAL ME'YORLASH ........ 289-295

*Niyozmatov Anvar Bahodirovich*
XORAZM XALQ O'YINLARI ........ 296-303

*Qodirov Xasanboy Oribjonovich*
OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARIDA LIDERLIK SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI ........ 304-309

*Kejaboev Abdusalim Erkaboevich*
PEDAGOGIK MENEJMENT VA ZAMONAVIY RAHBAR KOMPETENTLIGI ........ 310-315

*Axmadjonova Farangiz Axrorjon qizi*
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MASOFAVIY TA'LIM MAZMUNI VA TA'LIM JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISHNING DIDAKTIK – USLUBIY TA'MINOTI ........ 316-322

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ S/5 (3)-2023
ISSN: 2181-1342 (Online)
https://scienceproblems.uz

*10.00.00- Филология фанлари*

**Mahmudova Xushnoza Ravshanbekovna**
O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikasiyalar Universiteti
mustaqil tadqiqotchisi, O'zbekiston Respublikasi
Markaziy banki boshqarma boshlig'i
E-mail: hushnozamahmudova8@gmail.com

## OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA MOLIYAVIY SAVODXONLIKNI OSHIRISH MASALALARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada mamlakatimiz OAV, jumladan, televideniye, radio, matbuot va elektron bosma OAV orqali yoritilgan moliyaviy savodxonlik va iqtisodiy yo'nalishdagi turli dasturlar, mahalliy telekanallardagi ko'rsatuvlar, axborot lavhalari, radiokanallardagi eshittirishlar, gazeta va saytlardagi moliyaviy savodxonlik mazusidagi maqolalar tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada aholining moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish jarayonida OAV ning o'rni va ta'siri, unga qo'yiladigan talablar ham o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** moliyaviy savodxonlik, ommaviy axborot vositalari, televidenie, radio, moliyaviy savodxonlikka oid dasturlar va maqolalar, moliyaviy mahsulot, moliyaviy ko'nikma, moliyaviy mahorat, moliyaviy instrumentlar, moliyaviy xabarlar, moliyaviy bilimlar.

**Mahmudova Khushnoza Ravshanbekovna**
Independent researcher of the University of Journalism and
Mass Communications of Uzbekistan, Head of the Department of
the Central Bank of the Republic of Uzbekistan.

## ISSUES OF IMPROVING FINANCIAL LITERACY IN THE MEDIA.

**Abstract.** This article analyzes various financial literacy and economic programs covered by the mass media of our country, including television, radio, press and electronic print media, broadcasts on local TV channels, newsletters, broadcasts on radio channels, articles on financial literacy in newspapers and on websites. The article also examines the role and influence of the media in the process of increasing the level of financial literacy of the population, the requirements imposed on them.

**Keywords:** financial literacy, mass media, television, radio, programs and articles on financial literacy, financial product, financial skills, financial skills, financial instruments, financial messages, financial knowledge.

**Махмудова Хушноза Равшанбековна**
Независимый исследователь Университета журналистики и массовых
коммуникаций Узбекистана, руководитель управления
Центрального банка Республики Узбекистан

## ВОПРОСЫ ПОВЫШЕНИЯ ФИНАНСОВОЙ ГРАМОТНОСТИ В СМИ

**Аннотация.** В данной статье анализируются различные программы финансовой грамотности и экономической направленности, освещаемые средствами массовой информации нашей страны, включая телевидение, радио, прессу и электронные печатные СМИ, передачи на местных телеканалах,

информационные бюллетени, передачи на радиоканалах, статьи на тему финансовой грамотности в газетах и на сайтах. Также в статье исследуется роль и влияние СМИ в процессе повышения уровня финансовой грамотности населения, предъявляемые к ним требования.

**Ключевые слова:** финансовая грамотность, средства массовой информации, телевидение, радио, программы и статьи по финансовой грамотности, финансовый продукт, финансовые навыки, финансовые навыки, финансовые инструменты, финансовые сообщения, финансовые знания.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPI1342V3SI5Y2023N27

**Kirish.** Ommaviy axborot vositalari jamiyatning har bir a’zosiga asosiy moliyaviy va iqtisodiy bilimlarga boʻlgan ehtiyojni qondirish, doimiy murakkab iqtisodiy va pul munosabatlari dunyosida innovatsion gʻoyalarga tayanish, doimiy ravishda oʻsib borayotgan moliyaviy tendensiyani tushunishga yordam beradi. Mahsulotlar va xizmatlar, notoʻgʻri moliyaviy qarorlar sonini minimallashtirish, moliyaviy xizmatlar bozorida ishonchni oshirish va fuqarolarning jamiyatning moliyaviy hayotiga jalb qilinishini ragʻbatlantirish va shuning barobarida Oʻzbekistonning moliyaviy tizimini rivojlantirishga va aholining turmush darajasini oshirishga turtki beradi.

Avvallari asosiy ommaviy axborot vositalari orasida televideniye, radio va matbuotni ajratib koʻrsatish mumkin edi. Biroq, soʻnggi oʻn yilda internetning ommaviy axborot vositalaridan koʻra ta’sir doirasi va auditoriyasi kuchayib ketdi. Internetda yuzlab turli xil nashrlar, radio va televizion materiallar joylashtirilgani va shu bilan uning global auditoriyaga kirish imkoniyatiga ega boʻlgani asosiy yutugʻi boʻldi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Ushbu mavzudagi dastlabki tadqiqotlar materiallari 1999 yildan e’tiboran chop etila boshlandi. Iqtisodiyot jurnalistikasi, OAV loyihalarida moliyaviy savodxonlik masalalarining yoritilishi bilan bogʻliq mavzular A. Levitt, R. Islam, U. Dankerli, B. O. Nelli, E. Zamvolt, M. Gatter, Dj. Bechmanb, O. Vixrova, A. V. Zelentsova, E. A. Bliskavka, D. Demidov tomonidan tadqiq etilgan.

Moliyaviy savodxonlikni oshirish dasturlarining ommaviy axborot vositalari orqali amaliyotga joriy qilinishi kambagʻallikni qisqartirish va unga qarshi kurashishning muhim mezoni ekanligi haqida mahalliy olimlar N. Jumayev, O. Doʻstmuxammedov, A. Vaxobov, M. Obilov, D. Tajiboyeva kabi tadqiqotchilar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu tadqiqotning maqsadi moliyaviy savodxonlik va moliyaviy ta’limni yaxshilash borasidagi televizion dasturlarni amalga oshirishning milliy va xalqaro tajribasini tahlil qilish orqali televideniyening moliyaviy savodxonlikni oshirish jarayonidagi rolini aniqlashdir. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, tarixiylik va mantiqiylik, analiz va sintez, qiyosiy tanlab tadqiq qilish usullari qoʻllanilgan.

**Tahlil va natijalar.** Ommaviy axborot vositalarining har biri oʻziga xos xususiyatlarga, kuchli va zaif tomonlarga ega. Yozma soʻz orqali oʻz mazmunini ifoda etuvchi matbuotning oʻziga xosligi, birinchi navbatda, radio va televideniyega qaraganda matnlarning koʻproq analitik xususiyatga egaligidadir. Oʻqish jarayonining oʻzi fikrlashning yuqori darajadagi mavhumligini, tasavvurning faol ishlashini, intellektual keskinlikni nazarda tutadi. Natijada muallif bilan oʻquvchi oʻrtasidagi oʻzaro munosabat yanada yaqinlashadi. Shuningdek, gazeta va jurnal matnlari ma’lumot ombori sifatida qulaydir: ularga batafsil oʻrganish uchun qaytish mumkinligi ustuvorlik kasb etadi. Ya’ni ular ixcham, nusxa koʻchirish oson va hokazo sifatlarga egaligi bilan ham ahamiyatlidir.

“Soʻnggi bir necha yil ichida aholining moliyaviy savodxonligini oshirishga qaratilgan dasturlarning paydo boʻlish tendentsiyasi kuzatilmoqda. Bu ham boʻlsa vaqt taqozosi. Bozor iqtisodiyotining rivojlanishi bilan moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarning jadal oʻsishi, rivojlangan iqtisodiy tafakkurga ega, oʻz hayotini bozor sharoitida mukammal qura oladigan shaxsni tarbiyalash zaruratini paydo qildi. “Yoshlar” radiokanalidagi “biznes-trening”, “Avtoradio” radiokanalidagi “moliyaviy savodxonlik” dasturlari shular jumlasidandir. Ular talabalarni nafaqat jamiyat hayotida roʻy berayotgan oʻzgarishlarga yoʻnaltirish va ijtimoiy moslashuvi uchun zarur boʻlgan moliyaviy savodxonlikning asosiy darajasi doirasida tarbiyalaydi, balki Oʻzbekiston fuqarolari oʻrtasida iqtisodiy jihatdan toʻgʻri, maʼnaviy jihatdan asosli xulq-atvorning amaliy koʻnikma va malakalarini rivojlantirishga ham yordam beradi” [1].

Darhaqiqat, zamonaviy radio bu nafaqat global, balki milliy mediamuhitning toʻlaqonli komponenti hisoblanadi. Radio oʻz tendensiyalari, yutuq va muammolariga ega rivojlanayotgan alohida bir olam sifatida moliyaviy savodxonlikni rivojlantirishga, aholining turli qatlamlarining moliyaviy madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi deyishimiz mumkin.

Rivojlangan radio bozorlarining amaliyoti shuni koʻrsatadiki, aksariyat tijorat radiostansiyalari 20 dan ortiq asosiy formatlarga asoslangan [2]. Bu esa moliyaviy savodxonlik mavzusidagi turli formatdagi radioeshittirishlar tayyorlash va uni tinglovchilar eʼtiboriga havola etish imkonini yaratadi.

Televideniye — ommaviy axborot vositalari orasidagi eng keng tarqalgan va aholini zarur moliyaviy axborotlar bilan taʼminlash borasidagi arzon vositadir. U moliyaviy taʼlim berish funksiyasi jihatidan, butun dunyo boʻylab kundalik yangiliklar va koʻngilochar dasturlar, tok shoular shaklida juda foydali boʻlishi mumkin.

Aynan ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish – bugungi dunyoda maʼlumot tarqatishning koʻproq talab qilinadigan va ommaviy usuli sifatida moliyaviy taʼlim oluvchilar auditoriyasini kengaytirishga yordam beradi. Ijtimoiy media kanallarining rolini oshirish jarayoniga taʼsir qiluvchi bir qator omillarni tahlil qilish orqali aholining moliyaviy savodxonligini oshirish va moliyaviy taʼlim uchun infratuzilmani yaratish maqsadida turli mamlakatlarda qoʻllaniladigan tegishli manbalar va vositalar toʻplamini oʻrganish talab etiladi.

Ommaviy axborot vositalari ayni paytda aholining moliyaviy taʼlimiga oid koʻplab materiallarni muntazam ravishda chop etmoqda. Moliyaviy savodxonlik boʻyicha mavzular bosma va elektron ommaviy axborot vositalari orqali koʻproq taqdim etiladi. Joylashtirilgan materiallarning asosiy kamchiliklari ushbu maʼlumotlardagi aniq tuzilish va tizimli taqdimotning etishmasligidir. Masalan, “daryo.uz” saytining “pul” ruknida iqtisodiyotga, moliyaga oid xabarlar bilan birga moliyaviy savodxonlikka taalluqli maʼlumotlar ham berib boriladi [3]. Lekin bu maʼlumot va maqolalar tizimli va izchil ravishda yoʻlga qoʻyilmagan. “Kun.uz” nashriga [4] nisbatan ham xuddi shunday fikrni ilgari surish mumkin. Bloger va iqtisodchi Behzod Hoshimov tomonidan yuritiladigan “Iqtisodchi kundaligi” kanalida esa moliyaviy savodxonlikka oid juda koʻplab qimmatli maʼlumotlar va suhbatlar berib boriladi [5]. Masalan, blogerning kambagʻallik bilan bogʻliq mavzudagi “teshik chelakda suv tashiyapmiz” nomli intervyusi [6] kambagʻallikka qarshi kurashish borasida hukumat tomonidan yoʻl qoʻyilayotgan xatolar jihatidan kuzatuvchilar uchun juda qiziqarli kontent boʻldi. Biroq, uning ham maʼlumotlarida izchillik va tizimlilik etishmaydi. Chunki blogerning oʻzi qachonki biror

muammoga Real hayotda duch kelsa yoki xorijiy ekspertlar bilan suhbat uyushtirgandagina bunday masalalarga toʻxtalib oʻtadi.

Soʻnggi 5 yil ichida Oʻzbekiston OAVlarida moliyaviy savodxonlikni oshirishga qaratilgan dasturlar koʻpayib bormoqda. Kuzatishlarimiz natijalariga koʻra, respublika milliy va xususiy teleradiokanallari orqali efirga uzatiladigan “M-faktor”, “Impuls”, “Bank va farovonlik” (“Toshkent” telekanali), “Biznes-hafta” (“Oʻzbekiston” telekanali), “Sturt up club”, “indeks” (“Yoshlar” telekanali), “Biznes Investment” (“Mening yurtim” telekanali), shuningdek, “Oʻzbekiston-24” telekanalining “Axborot” dasturlari va “Uzreport” telekanalidagi yangiliklarida moliyaviy savodxonlik masalalari muntazam ravishda yoritib borilmoqda.

Respublikamiz radio toʻlqinlarida ham moliyaviy savodxonlik mavzusiga bagʻishlangan radioeshittirishlar soni oshdi. Masalan, “Avtoradio” orqali haftaning dushanbadan juma kunigacha moliyaviy savodxonlik dasturi orqali savol-javob (2021-2023 yillar), “Oriyat Dono” radiosi orqali esa har kunlik “Tavakkal” radiodasturini (2023 y.), shuningdek, misol tarzida keltirishimiz mumkin. Shuningdek, FM 102 toʻlqini orqali 2023 yil 17 iyul kuni Jasur Xudoyberganov va Farangiz Jabborova boshlovchiligidagi “Siz qanday va qancha pul jamgʻardingiz?”mavzusidagi interaktiv oʻyin tarzida olib borilgan dastur aholi oʻrtasida moliyaviy savodxonlikni oshirish, koʻproq pul jamgʻarishga motivatsiya berishga undashi bilan ahamiyatli deyish mumkin.

Bosma nashrlarda ham moliyaviy savodxonlik mavzusidagi ruknlar va mavzular koʻp uchraydi. Masalan, “Hurriyat” gazetasining mart oyidagi sonida Islom Asilbekovning “hamkasbimiz nega chuv tushdi?”sarlavhali maqolasi [7] yoki “Yangi Oʻzbekiston” gazetasining “Korzinka.uz savdo tarmogʻi kassalariga bank kartalardagi pulni naqdlashtirishga ruxsat berdi” nomli maqolalari [8] orqali oʻquvchilar bank kartalaridan foydalanishda muayyan qoidalarga amal qilish lozimligi, raqamli toʻlov vositalarining ahamiyati va afzalliklari xususida maʼlumot olish imkoniga ega boʻladilar.

Aholining moliyaviy savodxonligi va iqtisodiy bilimlarini oshirish borasida Internet nashrlari va blogerlar juda faol ishtirok etishmoqda. Ular orasida “kun.uz” nashrining “Qashshoq davlatlarning qashshoqligi sababi. Jeyms Robinson Toshkentda maʼruza qildi” sarlavhali (20.03.2023 y.) maqolasi [9] oʻquvchilar uchun nega ayrim davlatlar boy, ayrimlari kambagʻal degan savolga javob olish barobarida koʻplab moliyaviy, iqtisodiy masalalarga kreativ va qiziqarli keyslar yordamida yondashilganligi bilan ahamiyatli deyish mumkin. “Daryo.uz” saytining alohida “pul” rukni orqali ham foydalanuvchilarga moliya, iqtisodiyot sohasidagi yangiliklar va axborotlar berib borilayotganligi ham eʼtiborga molik. Internetdagi Blogerlar orasida aynan moliyaviy savodxonlik mavzusiga ixtisoslashgan “moliya.uz” [10], “BiznesRivoj” [11] kanallari esa foydalanuvchilarga moliyaviy savodxonlikning deyarli barcha yoʻnalishlarida moliyaviy taʼlim dasturi sifatida koʻmakchi vazifasini oʻtamoqda.

Ommaviy axborot vositalari keng tomoshabinlar auditoriyasini qamrab olish bilan birga, boshqa dastur va vositalarga nisbatan kam harajatli ekanligi hamda ijtimoiy guruhlarning har bir qatlami uchun axborotning qulay va jozibali tarzda taqdim etish va etkazib berish shakllariga egaligi bilan muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, ommaviy axborot vositalarining aholi moliyaviy dunyoqarashiga toʻgʻridan toʻgʻri taʼsir koʻrsatish funksiyasidan kelib chiqadigan boʻlsak, uning roli jamoatchilik ishonchining yuqori darajasi bilan taʼminlanganligi bilan ham izohlanadi.

Ommaviy axborot vositalari orqali moliyaviy savodxonlik mavzusidagi dasturlarni tashkil etish va uni omma e'tiboriga taqdim etishda quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

1. Bozorda mavjud boʻlgan moliyaviy vositalar va xizmatlar toʻgʻrisida aholining xabardorligini oshirish.

2. Shaxsiy moliyani toʻgʻri boshqarish, shu jumladan jamgʻarma, investitsiya, byudjetni rejalashtirish va hokazolar toʻgʻrisida ma'lumot berish.

3. Moliyaviy masalalar boʻyicha ekspert xulosasi va maslahatlarini taqdim etish, masalan, kredit mahsulotlarini tanlash, sugʻurta xizmatlari va boshqalar haqida.

4. Aholi uchun moliyaviy savodxonlikni oshirishga qaratilgan oʻquv tadbirlarini tashkil etish, masalan, seminarlar, vebinarlar, treninglar va boshqalar.

5. Moliyaviy savodxonlik materiallarini turli formatlarda nashr etish, masalan, maqolalar, videolar, podkastlar va boshqalar.

6. Media veb-saytlarida moliyaviy savodxonlik va shaxsiy moliyaga bagʻishlangan ixtisoslashtirilgan boʻlimlarni yaratish.

7. Muammoga e'tiborni jalb qilish va moliyaviy savodxonlikni oshirish dasturlarini yanada rivojlantirishni ragʻbatlantirish uchun aholining moliyaviy savodxonligi boʻyicha tadqiqotlar oʻtkazish va natijalarini ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish.

Shu asnoda aholining moliyaviy savodxonligini oshirish jarayonida ommaviy axborot vositalarining vazifalarini quyidagicha belgiladik:

1. Mutaxassislar va amaliyotchilar ishtirokida moliyaviy savodxonlik va shaxsiy moliyaga bagʻishlangan maxsus telekoʻrsatuvlar yaratish.

2. Tomoshabinlar e'tiborini jalb qilish va ularning ushbu mavzuga qiziqishini oshirish maqsadida moliyaviy savodxonlik mavzusida interaktiv dasturlar va tanlovlar oʻtkazish.

3. Bozorda moliyaviy vositalar va xizmatlar toʻgʻrisidagi ma'lumotlarni reklama roliklari va yangiliklardagi maxsus sarlavhalar orqali tarqatish.

4. Muammoga e'tiborni jalb qilish va moliyaviy savodxonlikni oshirish dasturlarini ishlab chiqish maqsadida mablagʻ toʻplash uchun moliyaviy savodxonlik mavzusida teletomoshabinlar va xayriya tadbirlarini tashkil etish.

5. Jamoat tashkilotlarini (NNT) ta'sis etish va qoʻshma tadbirlarni oʻtkazish uchun moliyaviy savodxonlikni oshirish bilan shugʻullanadigan tashkilotlar bilan hamkorlik qilish.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa oʻrnida aytish joizki, xorijiy mamlakatlar tajribasiga nazar tashlaganimizda moliyaviy savodxonlik yoʻnalishida nafaqat televizion, Internet nashrlari yoki radio orqali yoritiladigan dasturlar, balki, yaxlit bir telekanal yoki biznes nashr sifatida faoliyat yurituvchi ommaviy axborot vositalarini uchratish mumkin. Respublikamiz miqyosida esa bunday nashrlar va kanallar soni oz uchraydi. Bu borada esa Oʻzbekistonda biznes nashrlari sonini koʻpaytirish, moliyaviy savodxonlik televizion Internet kanallarini joriy qilish, 24/7 asosida efirga uzatiladigan moliyaviy savodxonlik radiokanallariga asos solish kabi muhim vazifalar turibdi.

Fuqarolarning moliya sohasidagi bilimlarini oshirishda OAVlarining, jumladan, televideniye, radio, bosma nashrlar, gazeta, jurnallar, Internet nashrlari, Blogerlar, jurnalist, mutaxassislar va ekspertlar aloqadorligini kuchaytirish — mamlakatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash, yuqori oʻsish sur'atlari, faol tadbirkorlik hamda toʻliq bandlik darajasiga erishishning muhim shartidir.

## Adabiyotlar / Literatura / References:


1. Исмаилова К., "Радиовещание Узбекистана в условиях демократизации: тенденции, проблемы, перспективы","Таълим-медиа" 2022 й.
2. https://spravochnick.ru/ekonomika/mediaekonomika_kak_nauka/osnovnye_formaty_sovremennyh_kommercheskih_radiostanciy/
3. https://daryo.uz/k/category/pul
4. https://kun.uz/news/category/iktisodiet
5. https://t.me/iqtisodchi_kundaligi/2353
6. https://youtu.be/2usaKoZ3avI
7. https://uzhurriyat.uz/2023/03/08/hamkasbimiz-nega-chuv-tushdi/
8. https://yuz.uz/uz/news/korzinkauz-savdo-tarmogi-kassalariga-bank-kartalardagi-pulni-naqdlashtirishga-ruxsat-berdi
9. https://kun.uz/71889065
10. https://t.me/moliyauzbek
11. https://t.me/BiznesRivoj

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SPI1342V3SI5Y2023

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

## *№ S/5 (3)-2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари”** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
**Муассис**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**
100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com
**Боғланиш учун телефонлар:**
(99) 602-09-84 (telegram).